

BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH YO‘LLARI

Giyayev Rustamjon Abdurasulovich-Bank-moliya akademiyasi magistranti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo‘yicha banklar, qarzdor korxonalar, kompaniya va uyushmalar, hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligi lozim”.

Respublikamizda bank kreditlarining qaytarilishini ta’minlovchi vosita garov ta’minoti bilan bog‘liq muammolar o‘rganilganda birinchi navbatda muammoli kreditlar masalasiga alohida e’tibor berishimiz kerak. Real holatda muammoli kreditlar miqdori doimiy tebranib turadi. Bunga sabab aynan ma’lum bir sanada mijozning kredit uchun to‘lovlari etarli va o‘z vaqtida malga oshirib bormoqda, ma’lum vaqt o‘tib ob’ektiv sabablar bilan mijozning to‘lovga qobilligi yo‘qolib qolishi mumkin. Amaliyotda bankning muammoli kreditini garov ta’minoti hisobidan so‘ndirish zaruriyati tug‘ilganda uni sotish bilan bog‘liq muammo dolzarb masalalardan biriga aylanadi. Shundan kelib chiqqan holda garov ta’minoti sifatida belgilangan mulklar bo‘yicha garov portfeli diversifikatsiyasi qattiq nazorat qilinishi lozim bo‘lgan jarayondir.

Banklar muammoli kreditlarni garov ta’minoti hisobidan qaytarish jarayonini soddalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Ba’zi paytlarda ushbu jarayon, juda uzoq muddatga cho‘zilib ketadi, bordiyu kredit olgan shaxs bu masala bo‘yicha sudga rad arizasi bilan murojaat qilsa, masala yana ham murakkablashadi. Fikrimizcha, banklarning krediti bo‘yicha muammoli vaziyatni garov ta’minoti hisobidan qoplash zaruriyati vujudga kelganda, bank uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri auktsionda sotish huquqini beruvchi tartibni O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”, “Ipoteka to‘g‘risida”, “Fuqarolik kodeksi” va boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilab qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bank faoliyatida yuzaga keluvchi risklarning hech biri o‘z qobig‘iga o‘ralgan holda alohida yuzaga kelishi mumkin emas. Kredit samaradorligining keskin pasayib borishi, kredit risklarini vujudga keltirishi, bu risk esa, o‘z navbatida, daromad ololmaslik, to‘lov qobiliyatini yo‘qotib qo‘yish (bankrotlik) kabi bank faoliyati uchun xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan risklarni keltirib chiqarishi mumkin. Inventarizatsiya natijasiga qarab, foiz to‘lovlarini o‘z vaqtida bajara olmayotgan mijozlar guruhi kredit va daromad ololmay qolish riski sifatida baholanib, riskdan muhofazalanish tadbirlari ishlab chiqilishi lozim. Fikrimizcha, bunday tadbirlar sifatida hududiy banklarda faoliyat yuritishi davr talabi bo‘lgan risklardan muhofazalanish, boshqarish tizimini tashkil etish zarur. Xulosa qilib aytsak, tijorat banklarida kredit samaradorligini oshirish strategiyalarining sifati ularni

amalga oshirishda faol ishtirok etadigan bank tizimi xodimlarining malakasi va kasbiy layoqatiga har tomonlama bog‘liq. Shuni mamnuniyat bilan aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda ko‘plab dunyo mamlakatlari, hatto rivojlangan mamlakatlardagi ham farqli ravishda tijorat banklarining kredit samaradorligini oshirishni davlat orqali qo‘llab-quvvatlash tizimi rivojlangan bo‘lib, bu kelajakda mamlakatiz iqtisodiyotida raqobatbardosh va har tomonlama jahon bank xizmatlari bozori talablariga mos keluvchi tijorat banklari tizimini rivojlantirishga muhim turtki bo‘ladi.

Shu bilan birga, olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida aholini kreditlashning o‘sishi bilan bog‘liq muayyan xatarlar mavjudligi, aholi kredit yukining haddan tashqari oshib ketishi, ya‘ni aholining o‘z daromadining kredit majburiyatlarini so‘ndirishga yo‘naltiradigan qismining sezilarli darajada ortib borishi yoki etarlicha daromadga ega bo‘lmasligi shuningdek kadrlar qo‘nimsizligi, natijasida kreditlarni qaytarishda jiddiy muammolarning yuzaga kelishida o‘z aksini topadi.

aktivlar - kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag‘lar, hisoblangan foizlar va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida sotilgan mulklar, boshqa aktivlar (muddati o‘tgan debitorlik qarzlari, kassalarda aniqlangan kamomad bo‘yicha xodimlar qarzdorligi, xodimlar tomonidan etkazilgan boshqa zararlar), balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlarini, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar);

muammoli aktivlar - sifati "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" deb tasniflangan aktivlar.

Kreditlarni yig‘ish – yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni oraliq grafiklari bo‘yicha muddati kelgan qarzdorlik (foiz) larni so‘ndirish.

monitoring – bu kredit va unga hisoblangan foizlar va boshqa moliyaviy to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlash maqsadida kredit ajratilishi ma‘qullangan vaqtdan boshlab bank oldidagi majburiyatlar to‘liq bajarilgunga qadar olib boriladigan nazorat.

maxsus zaxiralar — sifati “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan majburiy zaxiralar.

shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar — shartnoma va (yoki) unga qo‘shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o‘zgartirilgan aktivlar.

Qarzdorlikni sudga murojaat etmagan holda undirish choralari

Mijoz bilan tushuntirish ishlarini olib borish.

Shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarishi yuzasidan ogohlantirish xatlari yuborish.

Garovdagi va likvid mol-mulklarni ixtiyoriy ravishda sotish orqali qarzdorlikni qoplash.

Kelishuv shartnomasi tuzish.

Lizing ob'ektini qarzdor bilan kelishilgan holda qaytarib olish.

Muammoli aktivlarni undirish usuli

- Muammoli aktivlarni kafolat, kafil, garov mulki, garovdan xoli mulk, debitor qarzlar hisobiga undirish samaradorligini oshirish maqsadida respublika, hududlar miqyosida maxsus ishchi guruhlari, ishchi komissiyalari tuzish va ular faoliyatini tashkil qilish bo'yicha taklif tayyorlash;

- Muammoli aktivlarning kafolat, kafil, garov mulki, garovdan xoli mulk, debitor qarzlar hisobiga undirilishini ta'minlash maqsadida kredit komissiyasi qarori asosida sudlarga murojaat etish, shuningdek, sud hujjati ijrosini ta'minlash yuzasidan Yuridik xizmat departamenti bilan birgalikda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, majburiy ijro byurosi va uning bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish;

- Aktivlarni qoplash uchun bank balansiga olingan mulklarni o'rnatilgan tartibda auktsion orqali sotilishini va tushgan mablag'larni muammoli aktivlarni qoplashga yo'naltirilishini tashkil qilish.

Aktivlar holatini monitoring qilish va muammoli aktivlarni undirilishini tashkil qilish

Aktivlar holati monitoringi va muammoli aktivlar undirilishini tashkil qilish jarayonida:

- muammoli aktivlar elektron reestrini shakllantirish va yuritish;

- monitoring bo'linmalari faoliyatini ushbu tartib asosida to'g'ri va samarali tashkil qilinishi bo'yicha bevosita joyida **har chorakda kamida bir marotaba** (*chorak yakunlanishi bilan keyingi oydan kechiktirmasdan*) amaliy yordam ko'rsatish;

- olib borilgan monitoring jarayonida to'plangan ma'lumotlar asosida filiallarda har bir aktiv bo'yicha monitoring kartochkalari yuritilishini tashkil qilish va tekshirish;

- monitoring natijalariga asoslangan holda bank aktivlarining real tasniflanishini tashkil qilish;

- salbiy tasniflangan aktivlarni bartaraf etish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan bank Kredit qo'mitasi, Boshqaruviga aniq takliflar tayyorlash;

- muammoli aktivlarni kafolat, kafil, garov mulki, garovdan xoli mulk, debitor qarzlar hisobiga undirish samaradorligini oshirish maqsadida respublika, hududlar miqyosida maxsus ishchi guruhlari, ishchi komissiyalari tuzish va ular faoliyatini tashkil qilish bo'yicha taklif tayyorlash;

- muammoli aktivlarning kafolat, kafil, garov mulki, garovdan xoli mulk, debitor qarzlar hisobiga undirilishini ta'minlash maqsadida Kredit komissiyasi qarori asosida sudlarga murojaat etish, shuningdek, sud hujjati ijrosini ta'minlash yuzasidan Yuridik xizmat departamenti bilan birgalikda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, majburiy ijro byurosi va uning bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish;

- aktivlarni qoplash uchun bank balansiga olingan mulklarni o‘rnatilgan tartibda auktsion orqali sotilishini va tushgan mablag‘larni muammoli aktivlarni qoplashga yo‘naltirilishini tashkil qilish;

- bevosita monitoring ishlarini samarali tashkil qilish, muammoli aktivlar salmog‘ini kamaytirish yo‘llari xususida **kamida har oyda bir marotaba** texnik o‘quvlar, master-klass soatlari o‘tkazilishini ta‘minlash;

- kreditlash bo‘linmalari (investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va loyihalarni boshqarish markazlari) tomonidan aktivlar bo‘yicha yig‘majildlar shakllantirilishi, hujjatlarning amaldagi tartib-qoidalarga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishini doimiy o‘rganib borilishini tashkil qilish;

muammoli aktivlarning yig‘majildlar risoladagidek rasmiylashtirilmasligi oqibatida yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ygan kreditlash bo‘linmalari (investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va loyihalarni boshqarish markazlari) rahbarlari va mutaxassislari haqida, kamchiliklarni batafsil yoritgan holda, bank Boshqaruvi raisi va o‘rinbosarlariga yozma ma‘lumotnomalar kiritish ishlariga alohida e‘tibor qaratishi shart.

Qarzdorliklarni undirishga oid hujjatlarni sud organlariga taqdim qilish

Front ofis bo‘limlari tomonidan kredit qarzdorligi qaytarish grafigi bo‘yicha 2 oy muddatda tulamaganda mijozga har bir 10 bank ish kunidan kechikmagan holda kamida ikki marotaba ogohlantirish hati yoki talabnoma yuborish va xatlarni olganligini nazoratga olish;

Ogohlantirish xatlarini olgan mijozning javob xati yoki javob xati asoslantiruvchi jihatlar bo‘lmaganda, grafik bo‘yicha 3 oy davomida kechiktirilgan qarzdorlik to‘lanmaganda undirish bo‘yicha qarzdorning kredit yig‘ma jildidan mijozga yuborilgan ogohlantirish xatlari nusxasi, kredit olish uchun taqdim etilgan arizasi, kredit shartnomasi, ta‘minot xujjatlari nusxalarini Front ofis bo‘limi ma‘ul xodimi tomonidan bank bosh huquq maslahatchisiga hududiy Savdo-sanoat palatasining boshqarmalari orqali da‘vo arizasi kiritish uchun beradi;

Sud organlari tomonidan ishni sudga ko‘rishga tayyorlash to‘g‘risida ajrim chiqib, sud ishi belgilangan kuni sudga bankning bosh huquq maslahatchisi yoki mas‘ul Front ofis bo‘limi xodimi filial boshqaruvchisining ishonchnomasiga asosan qatnashadi.

Da‘vo arizasi tegishli sudga Savdo-sanoat palatasi orqali berilgan kundan, sud bulganga qadar bo‘lgan davrda hisoblangan foizlarni undirish bo‘yicha qo‘shimcha da‘vo kiritish yoki o‘sha kuni qo‘shimcha da‘voni sud majlisida bir nusxasini sudga, bir nusxasini javobgarga berish hamda suddan da‘voni qanoatlantirishni so‘rash bank bosh huquq maslahatchisi hamda Front ofis bo‘limi boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Bank foydasiga qaror qabul qilingan kundan boshlab foizlarni balansdan tashqari 91501-Berilgan kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar hisob raqamida hisobini

yuritishni boshlash. Buning uchun Front ofis tomonidan Bek ofis bo‘limiga formoyish taqdim etadi.

Mijozga sud qarori qabul qilingandan so‘ng hisoblangan foizlarni ixtiyoriy to‘lash yoki bu foizlarni ham sud tartibida majburiy undirilishi bo‘yicha rasmiy xat yuborish va xatni olganligiga aniqlik kiritadi.

Qarzdor yoki mijoz tomonidan qarzdorliklar ixtiyoriy to‘lanmaganda filial Front ofis bo‘limi tomonidan tegishli hujjatlar filial bosh huquq maslahatchisiga xat orqali taqdim etadi. Filial bosh huquq maslahatchisi 3 kun ichida, sud qarori chiqqan sanadan keyin hisoblangan foizlar bo‘yicha qo‘shimcha da‘vo ariza kiritib borishni tashkil etadi.

Tijorat banklaridagi muammoli kreditlarni undirish hamda sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui quyidagi harakatlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

✓ Banklarning kredit portfelini va loyihalar sifatini oshirish choralari;

✓ Banklarning kredit portfelida mavjud kreditlarga nisbatan stress-test amaliyotini qo‘llash imkoniyatlari;

✓ Muammoli kreditlarni tasniflar kesimida batafsil tahlil qilib, kredit portfelini saqlab qolish bo‘yicha ta’sirchan mexanizm ishlab chiqish;

✓ Tijorat banklari kredit portfelleri xatlovdan o‘tkazilib, qiyin ahvolga tushib qolgan har bir mijozning moliyaviy imkoniyatlarini tiklash bo‘yicha aniq choralarni ishlab chiqish.

Shuningdek, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlar ulushini bartaraf etish hamda salmog‘ini kamaytirishga quyidagi samarali holatlarga e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi:

➤ qo‘shimcha ta’minotni jalb qilish: qo‘shimcha kafolatlar yoki kafilliklar, mol-mulk yoki ko‘chmas mulk garovi;

➤ garov mulkini sotish;

➤ qarz oluvchining aktivlarini sotish orqali kreditni qaytarish, kam daromadli aktivlarga sarmoya jalb qilinishini oldini olish;

➤ mijozlarga nisbatan sanksiyalar qo‘llash;

➤ qarz oluvchidan qo‘shimcha mablag‘ va moliyaviy yordam jalb qilish yo‘li bilan kreditni qaytarish.

Shunday qilib, shakllantirilgan amaliy harakatlarga asoslangan ushbu maqola tadqiqotlari doirasida qarz oluvchilarning muammoli kreditlarini boshqarish tizimini tashkil etishga ilmiy-uslubiy yondashuv taklif etildi. Unda muammoli kreditlarni barvaqt aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, shakllantirilgan barcha

tavsiyalarni bank amaliyotida qo'llash imkoniyati mavjud, bu esa muammoli kreditlarni boshqarish jarayoni samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuznetsov S.V. (2008) "Ssudnaya zadoljennost kreditnix organizatsiy: problemi i instrumenti ee uregulirovaniya / Avtoref. diss kand. ekon. nauk. M.,. S.14.
2. Platonova Yu.Yu., Zaychenko S.E. (2011). Instrumenti upravleniya portfelem problemnix kreditov v sovremennix usloviyax. Finansi i kredit, (4 (436)), 29.
3. Slavyanskiy A.V. (2009) "Upravlenie problemnoy zadoljennostyu banka". Audit i finansoviy analiz. № 1. S. 303-308.
4. Yusupova O.A. (2016). Organizatsiya administrirovaniya problemnoy zadoljennosti v kreditnom portfele kommercheskogo banka. Finansovaya analitika: problemi i resheniya, (10 (292)), 54-66.
5. Mazurin Vladimir Viktorovich (2016). Mexanizm raboti s prosrochennoyi problemnoy zadoljennostyuv roznichnom kreditnom portfele rossiyskix bankov. Vestnik universiteta, (6), 120.
6. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari. - Bazel, 2001.
7. <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/351773/>